

SAMARQAND VILOYATIDA AGROSANOAT KLASTERLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK IMKONIYATLARI

Ibragimov L., Boboyev Sh.

Annotatsiya

Maqolada Samarqand viloyatining Narpay tumanida tashkil etilgan “Maroqand-sifat klasteri” tarkibiy tuzilish va uning faoliyat turlari o‘rganilgan bo‘lib, unda tashkil etilgan klaster bir qancha faoliyat turlari kelterilgan. Mazkur klasterda urug‘ni yerga ekishdan to uni qayta ishlab tayyor mahsulotga aylantirib, iste‘molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan zanjirsimon bog‘liqlik ifoda etilgan. Shuningdek, respublikamiz qishloq xo‘jaligida Samarqand viloyatlari o‘zining ulkan salohiyati baholangan, hududning o‘ziga xos jihati, barcha turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatlari statistik ko‘rsatkichlar orqali asoslanilgan.

Kalit so‘zlar. “Maroqand-sifat klasteri”, agrosanoat, klaster tizimi, xorijiy tajriba, qishloq xo‘jaligi.

Аннотация

В статье изучена структура и виды деятельности “Мараканд-сифат кластер”, созданного в Нарпайском районе Самаркандской области, в котором представлен ряд видов деятельности созданного кластера. В данном кластере выражена цепная зависимость от посева семян в землю до их переработки в готовый продукт и доставки потребителю. Также был оценен огромный потенциал Самаркандской области в сельском хозяйстве нашей республики, обоснована специфика территории, возможность выращивания всех видов сельскохозяйственной продукции на основе статистических показателей.

Ключевые слова. “Мароқанд-сифат кластери”, агропромышленность, кластерная система, зарубежный опыт, сельское хозяйство.

Abstract

The article examines the structure and activities of the “Marakand-sifat cluster”, created in the Narpai district of the Samarkand region, which presents several activities of the created cluster. In this cluster, a chain dependence is expressed on sowing seeds in the ground before they are processed into a finished product and delivered to the consumer. The huge potential of the Samarkand region in the agriculture of our republic was also assessed, the specifics of the territory, the possibility of growing all types of agricultural products based on statistical indicators were substantiated.

Keywords. “Marokand-sifat cluster”, agro-industry, cluster system, foreign experience, agriculture.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha hududlarida klasterlar tizimini joriy etish hamda uni rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Buning o'ziga xos sabablaridan biri, milliy iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanishini yanada yaxshilashga qaratilganligidir. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatlar zanjirini yaratish, tabiiy va moddiy resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida klaster usuli keng tatbiq etilmoqda. Xususan, hozirgi kunda qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlarida 462 ta agrosanoat klasteri (2,2 million gektar yerlarda) faoliyati yo'lga qo'yilgan [19].

Klasterda faoliyat turlarining kengayib tarmoqlanib borishi, birinchi navbatda yangi ish o'rinlarini yaratilishiga olib kelishi alohida ahamiyatlidir. Klasterlarning rivojlanishi aniq tarmoqning alohida olingan korxonalarini emas, balki barcha tarmoqlarni bir butunligicha rivojlantirishga va ularning hududiy oqilona joylashuviga ko'maklashadi. Tarmoqlarning bir butunligicha rivojlanishi avvalo, yangi ish o'rinlarini yaratilishi va bu orqali hududlarda aholi bandligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugun butun dunyoda oziq ovqat xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylandi. Ayni paytda qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, qishloq ahlining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta'minlash masalalari bevosita qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning zamonaviy usuli – klasterlar tizimi bilan bog'liq. Jahon amaliyotida mahsulot ishlab chiqarishdan to iste'molchigacha bo'lgan zanjirli bog'lanishni klaster jarayoni deb yuritish qabul qilingan. Ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning tahlillarida klaster tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan. Klaster deganda, hududiy jihatdan yaqin, funksional jihatdan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan turli xil subyektlar, ya'ni tashkilotlar, ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish korxonalari, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining birligi tushuniladi [1]. Klasterlarni shakllantirishning asosiy tamoyillari quyidagilarni hisobga oladi: hududning geografik o'rni, ma'muriy – xo'jalik tuzilishi, tabiiy sharoit va resurslar bazasi, aholi tarkibi, xo'jaligining o'ziga xosligi (tarmoqlari rivojlanishining asosiy omillari, mintaqa muammolari va ularni yechimini topish yo'llari) va boshqalar.

Ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster yondoshuvidan mamlakatimizda foydalanila boshlanganiga ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsada, xorijda raqobat nazariyasi asoschilari bu yo'nalishni anchadan buyon rivojlantirib kelmoqdalar. Ular orasida M.Porter, M.Meskon, P.Druker, A.Tompson, F.Xedouri, T.Brayan va boshqalar mavjud raqobatbardoshlikni boshqarishda klaster sxemalaridan foydalanish

nazariyasining asoschisi Maykl Porter hisoblanadi. Maykl Porterning fikriga ko'ra, mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligi valyuta kursi, foiz stavkasi, budjet kamomadi, arzon ishchi kuchi, tabiiy boyliklar kabi omillarga emas, balki ishlab chiqarish mahsuldorligiga bog'liq. Ishlab chiqarish korxonalarida mahsuldorlikning o'sib borishi iqtisodiyotning muntazam rivojlanishini talab qilgani holda, turli tarmoq korxonalari mahsulotlar sifatini oshirish, iste'mol xossalarini kengaytirish, texnologiyalarni rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirib borishlari lozim bo'ladi. Keyinchalik bu nazariya F.Reyns tadqiqotlarida rivojlantirildi. F.Reynsning raqobatbardoshlik borasidagi iqtisodiy qarashlari ham M.Porterniki kabi asosan ishlab chiqarish jarayonining va mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini rivojlantirib borishga asoslangan [2]. Bunda klaster sxemalarini yaratish amaliyoti bozor iqtisodiyoti anchadan buyon amal qilib kelayotgan mamlakatlar misolida ishlab chiqilgan.

MDH mamlakatlarida bu yo'nalishda ish olib borgan olimlar qatoriga D.Belousov, D.Salnikov, D.Sivakov, T.Gurova, A.Voronov, A.Buryak kabilarni kirgizish mumkin. Ular bu borada fundamental tadqiqotlar olib bormasdan, M.Porter g'oyalarini rivojlantirganlar xolos [4]. Mamlakatimizda klasterlar tashkil etishning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkilish masalalari G.Zaxidov, T.Matevka, A.Osmonova, O.Todorova, D.Mirzaxalilova, Ya.Be,D.Kurbanova, D.K.Begimova [12] kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda ishlab chiqarishni tashkil etishning klaster sxemasi mamlakat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishning, iqtisodiyotning turli tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishning muhim instrumenti sifatida tahlil qilingan.

Yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotchilar o'z ilmiy tadqiqotlari doirasida klasterlarni turli jihatdan o'rgandilar, tahlil qildilar, xulosalar chiqarib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdilar. Tadqiqot natijalaridan turli mamlakatlar iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda foydalanildi va foydalanib kelinmoqda. Nazariyalarning amaliyotda qo'llanishi ularning afzallik va kamchiliklarini yuzaga chiqarib, kamchiliklar ustida ish olib borilishi mavjud nazariyalarning yanadi boyitilishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayonda fikrlar xilma-xilligi uzatilib, biri ikkinchisini inkor etuvchi turli nazariyalarni uchratish mumkin. Klaster kontseptsiasining xali shakllanish jarayonidagi kontseptsiya ekanini hisobga olsak, olimlarning bu boradagi ilmiy tadqiqotlari uning yanada takomillashuviga xizmat qiladi.


Demak, yuqoridagi fikrdan xulosa qilish mumkinki, hududlarda klaster tizimini joriy qilishda, har bir hududning geografik xususiyatlari alohida tadqiq etish muhim ahamiyaga ega. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilganda, ularda klaster tizimini joriy qilish orqali yuqori natijalarga erishganligini ko'rishimiz mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq xo'jaligi tarmog'i qanchalik sanoatlashsa, davlatning eksport salohiyati shunchalik ortadi hamda qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz agrar tarmog'ida ilg'or texnologiyalarga asoslangan infratuzilmani yaratish uchun ishlab chiqarishning yangi usuli - klaster tizimi jadallik bilan joriy etilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash klasterining bosh maqsadi – yuqori qo'shimcha qiymatga ega, raqobatbardosh hududiy mahsulot ishlab chiqarish va shu asosida hududlardagi ayrim muammolar, ya'ni mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanish, sohada yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy masalalarni hal etishdan iborat.

Jahon tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash sanoatida vertikal integratsiyalashgan tizim samarali va raqobatbardosh bo'la oladi, bu tizim paxta xom ashyosini yetishtirish va dastlabki ishlov berishdan boshlab, to uni korxonalarda qayta ishlash va tayyor mahsulotga (ya'ni, ip-kalava, trikotaj, gazlama va kiyim-kechakka) aylantirishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Statistik ma'lumotlar va ularning tahlili. Respublikamizda 2017-2020 yillarda tashkil etilgan klasterlarning 26 foizi paxta-to'qimachilik, 42 foizi mevasabzavotchilik, 17 foizi g'allachilik, 10 foizi sholichilik, 2 foizi dorivor o'simliklar yetishtirish va qolgan 3 foizini paxta to'qimachilik kooperatsiyalari tashkil etadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlarida 462 ta agrosanoat klasterlari faoliyati yo'lga qo'yilishi va ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan loyihalar natijasida so'nggi 3 yilda hududlarda 152 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Bu kabi loyihalar barcha yo'nalishdagi klasterlar tomonidan muvaffaqiyatli amalga oshirishning imkoniyatlari tadqiq etilayotgan mintaqada ham yanada yuqori. Jumladan, Samarqand viloyatida jami tashkil etilgan klasterlar soni 45 ta bo'lib, jami respublikadagi klasterlarni 10.3 foizi to'g'ri keladi.



1-rasm. Maroqand – sifat klasterining tarkibiy tuzilishi
(O‘rganilgan ma’lumotlar asosida tuzildi)

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida Samarqand viloyatlari o‘zining ulkan salohiyati bilan alohida ahamiyatlidir. Hududning o‘ziga xos jihati, barcha turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish imkoniyatining mavjudligidir. Tadqiqot ishida 2017-yil Samarqand viloyatining Narpay tumanida tashkil etilgan “Maroqand-sifat klasteri” tarkibiy tuzilish va uning faoliyat turlari o‘rganildi (1-rasm). Rasm ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tashkil etilgan klaster bir qancha faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Har bir faoliyat turi keyingilari bilan bevosita bog‘liq hamda bir-birini to‘ldirib boradi.

Mazkur klasterda ham urug‘ni yerga ekishdan to uni qayta ishlab tayyor mahsulotga aylantirib, iste’molchiga yetkazib berishgacha bo‘lgan zanjirsimon bog‘liqlik ifoda etilgan. Klasterda faoliyat turlarining kengayib tarmoqlanib borishi, birinchi navbatda yangi ish o‘rinlarini yaratilishiga olib keladi. Klasterning yana bir e’tiborli tomoni, har bir tashkil etilgan faoliyat turi yangilarini tashkil etishga sabab bo‘ladi. Bu jarayon esa bevosita uning faoliyatini yanada kengayib borishiga olib keladi.

Klasterlar faoliyatining kengayib borishi uning daromadlari bilan birga imkoniyatlarini ham oshiradi. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, qishloq xo‘jaligida klaster tashkil etilgandan keyin yangi ish o‘rinlarini yaratishda jiddiy o‘zgarish bo‘lgan. Klaster qoshida tashkil etilgan har bir faoliyat turida 5 tadan 600 nafargacha yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Masalan, klaster boshqaruvi, urug‘chilik sexi, biolaboratoriya, paxta qabul qilish shahobchasi va paxta tozalash korxonalarida 150 nafardan ortiq ishchi xodim faoliyat olib boradi.

1-jadval

Fermer xo‘jaliklari va yangi tashkil etilgan Maroqand-sifat klasterining tarkibiy tuzilishi

Klastergacha	Klasterga aylantirilgandan keyin
Maydoni – 10717 ga	Maydoni – 10762 ga
Fermer xo‘jaliklari soni - 440	Fermer xo‘jaliklari soni – 244 ta
Fermer xo‘jaliklarida ishlovchilar soni – 1760 nafar bo‘lgan. (2017-yilgacha)	Fermer xo‘jaliklarida ishlovchilar soni – 1098. (2021 yil)
Paxta qabul qilish shahobchalari soni – 4 ta bo‘lgan	Paxta qabul qilish shahobchalari soni – 2 taga kamaytirilgan.
Paxta qabul qilish shahobchalarida ishlovchilar umumiy soni – 90 nafar bo‘lgan.	Klaster tarkibiga o‘tganlan keyin paxta tozalash shahobchalarida ishlovchilar soni – 32 nafarga tushirilgan.
2017-yilgacha yillik xosil miqdori – 29 sentner bo‘lgan.	2017-yildan keyin yillik xosil miqdori ortib, hozirda 35.1 sentnerga yetgan.

Fermer xo'jaliklarida ishlaganlarning o'rtacha oylik miqdori - 500-600 ming so'm. (2017-yilgacha)	Klaster tarkibidagi fermer xo'jaliklarida ishlaganlarning o'rtacha oylik miqdori 1,5-2 mln.so'm. (2021 yil)
Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mashinalari va traktoralari asosan mavsumiy yollanma asosida jalb qilingan.	Klaster texno parklarida jami 42 ta qishloq xo'jaligi mashina va traktorlar mavjud. Ularning soni yildan-yilga ortib bormoqda.
	Paxta tozlash korxonalari soni – 1 ta
	Paxta tozlash korxonalarida ishlovchilar soni –150 nafardan iborat.
	Tashkil etilgan ip-kalava yigiruv fabrikalari soni 2 ta bo'lib, ularda jami ishlovchilar soni – 750 nafar
	Yog' ishlab chiqarish zavodlari soni - 1 ta bo'lib, unda 40 nafar ishchi faoliyat olib boradi.
	Omixta yem sexi 1 ta bo'lib, unda ishlayotganlar soni 6 kishi.

Jadval o'rganilgan ma'lumotlar asosida to'ldirildi

Klasterga tegishli fermer xo'jaliklari soni 244 ta bo'lib, ularda jami 1098 nafar ishchi faoliyat olib boradi. Shuningdek klasterga tegishli yog' zavod va u bilan birga tashkil etilgan omixta-yem sexida 46 nafar ish o'rinlari yaratilgan. Eng asosiysi klaster qoshida tashkil etilgan 2 ta ip-kalava yigiruv fabrikalarida jami 750 ta ish o'rinlari yaratilgan. Shu bilan birga paxta tozalash korxonalarida 150 nafar ishchi faoliyat olib boradi. Har yili mavsumiy ishlarga 3 oygacha bo'lgan muddatda 400 tagacha ishchi jalb qilinadi.

Klaster tashkil qilingandan keyin fermerlar tomonidan yetishtirayotgan paxtaning yillik xosil miqdori 29 sentnerdan 35,1 sentnerga ko'tarilgan. Klasterga tegishli yog' zavodida kuniga 8-10 tonna yog' ishlab chiqarish quvvatiga ega. Umuman olganda, 2017 yil tashkil qilingan mazkur klasterda jami 2300 ga yaqin ish o'rinlari yaratilgan. Ko'rinib turibdiki, klaster yo'nalishi ish o'rinlarini yaratishda va iqtisodiyotning barcha tarmog'i uchun istiqbolli ekanligi namoyon bo'lmoqda. Fikrimizcha, qishloq hududlarida mehnatga layoqatli aholining norasmiy ish bilan bandligini kamaytirish uchun samarali faoliyat ko'rsatayotgan paxta-to'qimachilik klasterlarini doimiy rivojlantirish maqsadga muvofiq. Shuni alohida ta'kidlash

lozimki, har bir tumanda qishloq xo'jalik ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda boshqa turdagi klasterlarni ham tashkil qilish mumkin.

Agar hududlarning imkoniyatlari to'g'ri baholanib tashkil qilinsa, o'rganilayotgan mintaqaning qishloq xo'jaligida klasterlarning barcha turlarini tashkil etish uchun yetarli imkoniyatlar bor. Masalan, klasterlar tashkil etish imkoniyatlari yuqori bo'lgan bo'lgan qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmi respublika hududlari kesimida Samarqand 12,9 foizni tashkil etadi. Shuningdek, yetishtirilgan don mahsulotlarini 10 foizini beradi. Bundan tashqari, respublikada yetishtirilgan sabzavot va poliz mahsulotlari, meva va rezavorlar hamda uzum hosilining ham katta qismi viloyat hissasiga to'g'ri keladi.

Yuqorida keltirilgan statistik ko'rsatkichlarning respublikadagi ulushi bo'yicha boshqa viloyatlarga qaraganda Samarqand yuqori o'rinlarni egallaydi. Shu bilan birga o'rganilayotgan hududning ayrim tumanlari chovachilik mahsulotlarini hajmi bo'yicha ham respublikadagi yetakchi tumanlardandir.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan hududda agrosanoat klasterlarini tashkil qilish uchun yetarlicha imkoniyatlar jumladan, hududlarning qulay geografik o'rni, tabiiy sharoitning o'ziga xosligi, qishloq xo'jalik tuzilishi va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi kabi muhim xususiyatlarga ega.

Samarqand viloyatida meva-sabzavotchilik klasteri tizimini joriy qilish imkoniyatlari mutaxassislar tomonidan yuqori baholangan. Tadqiqot ishida o'rganilayotgan hududlarning tabiiy-iqlim sharoitlariga mos, serhosil va eksportbop meva-sabzavot ekinlari navlarini joylashtirish, tashqi bozor talabiga to'liq javob beradigan mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonini to'liq qamrab oluvchi klaster tizimini keng joriy qilish taklif etiladi.

O'rganilgan ma'lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, Samarqand viloyatining tog' va tog' oldi tumanlarining o'rmon xo'jaliklarida dorivor o'simliklar yetishtiruvchi klasterlarni tashkil etish imkoniyatlari yetarli. Shundan kelib chiqib, mintaqaning tog'li hududlarida dorivor o'simliklar yetishtirish, saqlash, birlamchi yoki chuqur qayta ishlash klasterlarini tashkil etish zarur. Bunday dorivor o'simliklar klasterlarini tashkil etishda iqtisodiy jihatdan barqaror faoliyat yuritayotgan, zaruriy infratuzilma obyektlari, tuproq-iqlim sharoitlari, suv ta'minoti, ichki va tashqi bozorlardagi talablarini inobatga olgan holda dorivor va ziravor o'simliklar joylashtirishga mos yer maydonlari ajratilishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Xulosa va takliflar

O'rganilayotgan mintaqada klasterlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali paxta-to'qimachilik, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, ipakchilik, baliqchilik, dorivor o'simliklar va agroturizm klasterlari va kooperativlarida yangi

ish o'rinlarini yaratish va ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zaruriy-moddiy texnik, moliyaviy, boshqa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish resurslari bilan ta'minlash, mehnatga layoqatli aholini norasmiy ish bilan bandligini kamaytirishga bevosita va samarali ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi faoliyat turlarini rivojlantirish, birinchidan, hududlarda agrosanoat klasterlarini samarali tashkil etish orqali istiqbolda iqtisodiyotning bu tarmog'ida ish bilan bandlar ulushini oshirishga va ishsizlik darajasini kamayishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, to'qimachilik korxonalari qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun investitsiya kiritadi. Natijada paxta tolasini qayta ishlash darajasi oshib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ko'lamini kengayadi.

Uchinchidan, klasterlar o'z tarkibida yangidan-yangi korxonalarini barpo etish orqali agrosanoatni rivojlantirish, modernizatsiya qilish, mahsulotlarning sifat darajasini ko'tarish orqali o'zining iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini oshiradi.

To'rtinchidan, hududlarda klasterlar faoliyati turlarini yurituvchi zamonaviy ishlab chiqarish sohalarida ish olib boruvchi mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar markazlari tashkil etiladi.

Beshinchidan, agrosanoat klasterlarini rivojlantirish orqali kichik sanoat shaharchalarini barpo qilish imkoniyatlari oshadi.

Adabiyotlar

1. Курбонов Ш.Б. Кичик хуудлар ижтимоий-иқтисодий географияси (монография). – Т.: “Mumtoz so‘z”, 2013. – 182 б.
2. Халмирзаев А.А. Иқтисодиётнинг рақобатбардошлигини оширишда минтақавий кластерларнинг аҳамияти // Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 60-жилд. – Ташкент, 2021. – Б.64.
3. Федорко В.Н. Ўзбекистонда табиатдан ойдаланишнинг худудий таркибини такомиллаштиришнинг иқтисодий-географик асослари. – г.ф.ф.д. дисс. автореферати. –Т.: ЎЗМУ, 2018. – 52 б.
4. Требушкова И.Е., Попкова Л.И. Интеграционное районирование Курской области по уровню развития пищевой промышленности // Ученые записки: электронный научный журнал, № 3. Курск, 2012. – С.4, 11.
5. Тожиева З.Н. Меҳнат ресурслари ва улардан фойдаланиш // Jamiyat va boshqaruv. №2. 2009. Ижтимоий-сиёсий, илмий-иқтисодий, маънавий-тарихий журнал. – Тошкент, 2009. – Б.16-19.
6. Tojiyeva Z.N., Ibragimov L.Z., Musayev B.M. (2022). *O'zbekistonda demografik modernizatsiyalash*. Ilmiy axborotnoma. 3 (133). – Samarqand, 102-106 b.
7. Усмонов Б.Ш., Рахимов Ф.Х. Интеграция, инновацион муҳитни шакллантириш ва иқтисодиётни кластерлаштиришга комплекс ёндашув.

Иқтисодиёт ва таълим. – Т.: ТДИУ, 2019., №4. 79-86 б.

8. Ibragimov L., Muminjonova S. (2023). Hududlarni iqtisodiy rivojlanishida yer va suv resurslarining ahamiyati. *Eurasian Journal of Academic Research*, 3(1 Part 2). – В. 164-169.

9. Ибрагимов Л.З. (2022). *Жануби-ғарбий Ўзбекистонда аҳоли бандлигининг иқтисодий географик хусусиятлари*. DSc автореферати. Тошкент, 63 б.

10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 декабрдаги ПФ-5285-сон “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.

10. Закиров И.В. Взаимодействие внешнеэкономических инновационных кластеров и вузов в зарубежных странах // Торговля, предпринимательство и право, 2017.–№ 2.

11. Кузнецова Н.В., Воробьева Н.А. Кластеризация экономики: зарубежный опыт развития и перспективы России // Экономика науки, 2016. – № 2.

12. Савинова О.В., Колесниченко Е.А. Роль трансграничного сотрудничества в формировании европейских инновационных кластеров // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки, 2014. – № 2(130).

13. Обзор инновационных кластеров в иностранных государствах. Минэкономразвития РФ. [Электронный ресурс].

14. Оборина Е.Д. Зарубежный подход к оценке эффективности кластерной политики // Региональная экономика и управление: электронный научный журнал, 2016 – № 4(48).

15. Мельников А.Е. Кластерная политика как эффективный инструмент развития территорий: исследование зарубежного опыта // Вопросы региональной экономики, 2017. – № 3(32).

16. Степанов Н.Н. Мировой опыт создания конкурентоспособных кластеров //Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 2012. – № 47(188).

17. Убоженко Е.В. Анализ мирового опыта создания кластеров и повышение конкурентоспособности территорий и производственных комплексов // Интерэкспо Гео-Сибирь, 2017. – № 2.

18. Бегимова Д.К. Худудни ривожлантиришда кластер сиёсатидан фойдаланишнинг хориж тажрибаси. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*” ilmiy elektron jurnali. 2021. – № 2.(166).

19. <https://daryo.uz/2021/04/20/ozbekistonda-agroklasterlar-rivojiga-nimalar-xalal-bermoqda-va-bu-to'siqlarni-qanday-bartaraf-etish-mumkin>.

Ibragimov Lutfullo Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi professori

Lutfullobek@mail.ru

Boboyev Shodiyor Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi tayanch doktoranti